



Kibriyo SULTONOVA,

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: kibriyosulton@mail.ru

Navoiy davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori F.Yuldashev taqrizi asosida

BOTANIK TERMINLARNING O'TIL DA GURUHLARGA AJRATILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada botanik terminlarning umumiy va maxsus lug'atlarda berilishini mukammallashtirish masalasi hamda uni "O'zbek tilining izohli lug'at"idagi mazkur terminlarning ma'noviy guruhlanishiga oid masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Lug'at, termin, izohli lug'atlar, abstrakt, leksik birliklar, illyustrativ misol, ma'no kengayishi va torayishi, maxsus pometa.

КЛАССИФИКАЦИЯ БОТАНИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ ПО ГРУППАМ В ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос совершенствования представления ботанических терминов в общих и специализированных словарях, а также вопросы, связанные с семантической группировкой этих терминов в «Толковом словаре узбекского языка».

Ключевые слова: Словарь, термин, толковые словари, аннотация, лексические единицы, иллюстративный пример, расширение и сужение значения, специальное значение.

CLASSIFICATION OF BOTANICAL TERMS INTO GROUPS IN THE LANGUAGE

Annotation

This article discusses the issue of improving the presentation of botanical terms in general and specialized dictionaries, as well as issues related to the semantic grouping of these terms in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language".

Key words: Dictionary, term, explanatory dictionaries, abstract, lexical units, illustrative example, expansion and narrowing of meaning, special meaning.

Turli sohalarida ilmiy bilish jarayonining jadallashishi tilshunoslikda terminologiyaning alohida yo'nalish sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, lug'atlarning yaratilishi, milliy terminologiya, terminografiyani rivojlantirish masalalari bilan bog'liq tadqiqotlar ko'lamining kengayishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy dunyoda terminlar va ularni o'rganuvchi soha ilmiy muloqot jarayonida axborot uzatishning asosiy vositasi, turli ixtisosliklarni o'rganish va bu orqali ilmiy taraqqiyotni jadallashtirish vositasidir, deyishimiz mumkin. Bularning hammasi sohaga doir terminlarning tartibga solinishi, ularning umumiy va maxsus lug'atlarda berilishini mukammallashtirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. "Dunyo tilshunosligida terminologiya har bir fan tarmog'ining qon tomiri sifatida jadal rivojlandi. Terminosistemaning tizimli shakllanishida terminografik tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etishini davr ko'rsatmoqda". Bunda sohaga doir maxsus lug'atlardan tashqari muayyan tilning lug'at boyligini o'zida aks ettiradigan izohli lug'atlarning ahamiyati katta.

O'zbek tilshunosligida terminologiya, terminlarni tizimlashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarning bir qismi muayyan sohaga oid terminlarni jamlash, tizimlashtirishga qaratilgan bo'lsa, boshqa bir qismi terminologiyaning ikki tildagi qiyosiga qaratilgan. S.Mustafayeva, S.Muhamedova, D.Kadirkbekova, P.Nishonov, N.Mamatov, R.Daniyarov, S.Akobirov, S.Usmonov, I.Pardayeva, O.Po'latova, Z.Mirahmedova, X.Jabborov, T.Valiyev kabi olimlarning tadqiqotlari shular jumlasidandir. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar muayyan soha terminlarining o'zbek tilidagi izohli lug'atlarda berilishi, leksikografik talqindagi muammolar va ularning yechimlariga qaratilgan. Aslida umumiy izohli lug'atlar tilshunoslikning leksikografiyaga doir eng muhim yutuqlarini o'zida jamlaydi. Chunki izohli lug'atlardan barcha uslublarga, semantik guruhlariga xos leksik birliklar o'rin oladi. Hayotimizning barcha sohalaridagi o'zgarishlar, turli davlatlar bilan bo'layotgan aloqalar natijalari, avvalo, izohli lug'atlarda o'z aksini topadi. Shu ma'noda izohli lug'atlar terminologiya, terminografiya taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan asosiy

leksikografik manbadir, deyish mumkin. Zero, har qanday sohaga doir maxsus lug'at yaratilar ekan, u sohaga oid adabiyotlardan keyin izohli lug'atlarga tayaniladi.

80 mingdan ortiq leksik birlikni qamrab olgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da yuzlab sohalariga oid terminlar mavjud. OTILga kiritilgan botanikaga doir atamalarni terminologik ma'nosining darajasiga ko'ra to'rt guruhga ajratish mumkin bo'ladi:

asosan botanikada, qisman boshqa sohalarida ham qo'llanuvchi terminlar;

asosan boshqa sohada, qisman botanikada qo'llanuvchi terminlar;

asosan umumiste'mol so'zi, qisman botanikada qo'llanuvchi terminlar;

faqat botanik termin vazifasida qo'llanadi.

Albatta, bu kabi guruhlariga ajratishda ularning turli sohalariga va nutq vaziyatlariga xos bo'lgan matnlarda qo'llanish chastotasi, maxsus lug'atlarga kiritilganligi kabi xususiyatlarga tayanildi. Masalan, bir leksik birlikning bir nechta soha uchun termin vazifasida qo'llanishi til sistemasi nuqtayi nazaridan ham bor bo'lgan tushunchadir. Har qanday sistema, u moddiy bo'ladimi, abstrakt (tafakkur sistemasi) bo'ladimi, muayyan tartibga, uni hosil qiluvchi unsurlarning munosabatlari asosida yashaydi. Unsurlar orasidagi o'zaro va umumsistemaga bo'lgan munosabatlar asosidagi tartib sistemaning strukturasi tashkil etadi. Sistemada muayyan element butun sistema faoliyatiga ta'sir qiladi. Elementlar orasidagi o'zaro bog'liqlik butun sistema faoliyatini ta'minlaydigan omildir. Boshqacha aytganda, bir unsur bir vaqtning o'zida turli sistemalarning birligi bo'la olar ekan, bu bir leksemaning o'z mohiyatiga ko'ra turli sohalar termini vazifasini bajarishi ham tabiiy hol sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtayi nazardan izohli lug'atga kiritilgan botanikaga doir terminlarni yuqoridagi kabi to'rt guruhga ajratish mumkin bo'ladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"ga kiritilgan amfibiyalar, baytqo'rg'oni, baliqko'z, banan, bangidevona, bargizub, baxtiyori, baqajo'xori, baqasalla, baqato'n, baqayaproq, bekdodi, beshbarg, beshbarg, behi, behisht, binafsha, gunafsha, boboyi, bodom, bodomcha, boltiriq, bo'rigul, gulband, gulkosa, dastorbosh,

landish, limon, lishaynik, lola, lux, majnuntol, maymunjon, mita, navro'zgul, naycha, olqor, nektar, onalik, otalik, pashmak, payvandust, partak, pista, g'o'za kabi botanikaga doir terminlarda yuqoridagi to'rt guruh belgilarini ko'rishimiz mumkin. Sanalgan terminlardan amfibiyalar termini ham botanika, ham zoologiya sohasida qo'llanadi. G'o'za, daraxt kabi terminlar asosan botanikada, qisman qishloq xo'jaligida qo'llanadi. Onalik, otalik kabi terminlar esa asosan huquqshunoslikda, qisman botanikada qo'llanadi. Shuningdek, behi, majnuntol, maymunjon, olma, anor kabi terminlar asosan umumiste'mol so'zlari hisoblanadi. Bu so'zlar o'rni bilan ular botanikaga oid termin sifatida qo'llanishi ham tabiiy holdir. Bargizob, baqasalla, payvandust, partak kabi leksik birliklar esa faqat botanik termin ma'nosida qo'llanadi. Ta'kidlanganidek, bu kabi guruhlarini shakllantirishda leksik birliklar ko'proq uchraydigan matnlar tahlili asos vazifasini bajaradi. Keltirilgan lisoniy birliklarning aksariyati maxsus pometa (bot.) vositasida lug'atga kiritilgan. Bu lug'atdan foydalanuvchilarning imkoniyatlarini oshirganligi shubhasiz.

Terminlarning o'zbek tilidagi izohli lug'atlarda qo'llanishi masalasida so'z borar ekan, ularga lug'at maqolasining turli o'rinlarida murojaat qilinganligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. YA'ni terminlar O'TILga kiritilgan lug'at maqolalarining bosh so'z, bosh so'z izohi va illyustrativ misol qismlarida faol qo'llangan. "Ko'pchilik qo'llaydigan va tushunadigan, darslik, ilmiy-ommabop asar va davriy matbuotda ko'p qo'llanadigan terminlar" chegaralangan leksika birliklardan bosh so'z sifatida ajratilishi izohli lug'atdan foydalanish yo'riqnomasida bayon qilingan. Yuqorida sanalgan terminlardan tashqari pupanak, rayhom, raps, sada, salbiya, salib, sallagul, sallaqovq, salomalaykum, sambit, sambitgul, sano, sanobar, sarv, saritol, sariqqamish, sarsabil, sasir, sebarta, takasoqol, tanacha kabilar bosh so'z maqomida va maxsus pometa vositasida izohli lug'atga kiritilgan. Aslida, sanalgan terminlarning ba'zilariga umumiste'molda ham keng qo'llanishi tufayli ularga botanika sohasiga tegishli ekanligini bildiruvchi leksikografik belgi (pometa) qo'yilmagan. Bosh so'z vazifasida kelgan so'zning izohli lug'atlarda qanday jihatlarni qamrab olishi haqida quyidagi fikrlarni keltirish o'rinli: "Izohli lug'atlarda denotat tavsiflanar ekan, agar denotat narsa/predmet bo'lsa, izohda, avvalo, uning vazifasi, keyin asosiy belgilari, so'ngra qurilishi, tuzilish xususiyatlarini ifodalovchi semalar va oxirida qaysi turga mansublik semasi berilgan". Fikrlarni O'TILda bosh so'z maqomida kelgan leksik birliklar va ularning izohi vositasida dalillaymiz. Masalan, o'simlik nomini ifodalovchi, demakki, botanik termin ma'nosini ifodalovchi "zanjabil" so'zi quyidagicha izohlangan:

"ZANJABIL [a. – ziravor o'simlik nomi] Zanjabildoshlar oilasiga mansub, yo'g'on ildizpoyali, gul va mevasiz, naysimon o't o'simlik (dorivor, ziravor modda sifatida ishlatiladi)".

Lug'at maqolasi denotatning vazifasini ifodalovchi sema, asosiy belgilarini ifodalovchi, uning qurilishi, tuzilish xususiyatlarini ifodalovchi, mansublikni ifodalovchi semalarni qamrab olgan. Bunda denotatning mansubligini bildiruvchi sema sifatida "zanjabildoshlar oilasiga mansub" semasini; tuzilish, qurilish semasi sifatida "yo'g'on ildizpoyali, gul va mevasiz, naysimon" semasini; denotat o'rnida qo'llanuvchi sema sifatida "o't o'simlik" semasini ajratish mumkin. Denotatning "qo'llanish sohasi" semasi qavs ichida, qo'shimcha ma'lumot sifatida

keltirilgan: (dorivor, ziravor modda sifatida ishlatiladi). Mazkur so'z o'zbek tilidagi matnlarda juda ko'p o'rinlarda qo'llansa ham, uning izohini dalillash uchun illyustrativ misol keltirishga ehtiyoj yo'q deb hisoblangan. Umuman olganda, mazkur leksikografik talqinda leksemaning terminologik ma'nosiga ko'proq e'tibor qaratilganligini ta'kidlash lozim.

O'TILda keltirilgan botanik terminlarning izohida maxsus pometa qo'yilgan leksik birliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, bunday leksemalar ko'proq terminologik ma'nosi bilan nutqqa olib kiritiladi. Shu sababli ularning lug'atdagi izohida botanika sohasiga doir ekanligini ko'rsatuvchi pometa qo'llanadi. Masalan, tog'beqa leksemasi o'zbekcha matnlarda asosan botanik termin ma'nosida qo'llanadi. Uning izohi uchun quyidagi lug'at maqolasi keltirilgan:

"TOG'BEKA bot. Yo'g'on ildizli, ko'pyillik o't o'simlik. Qo'qon tog'bekasi – ajoyib manzarali o'simlik".

Izohni dalillash uchun illyustrativ misol ham keltirilgan bo'lib, unda ham leksemaning terminologik ma'nosiga e'tibor qaratilgan. Botanik terminlarning maxsus pometa bilan berilishi polisemantik so'zlarda o'ziga xosdir. Chunki polisemantik so'zning muayyan ma'no(lar)igina terminologik xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Shunday o'rinlarda leksemaning terminologik ma'nosi maxsus pometa bilan beriladi. Masalan, tomir leksemasining ham anatomik, ham biologik, ham botanik ma'nolari izohli lug'atda sharhlangan bo'lib, uning botanik termin ma'nosi "ildiz" so'zi vositasida berilgan. Muayyan soha terminlarining boshqa sohalar terminologik tizimlariga o'tishi transterminlashuv deb nomlanadi. Transterminlashuv jarayoni obyektiv sabablar, turli lingvistik va ijtimoiy omillar, usullar asosida kechadi. Jumladan, tadqiqotchi X.Hashimova terminlarning hosil bo'lish usullari sifatida uslubiy xoslanish, juft so'z tarkibida so'z ma'nosining kuchsizlanishi, jonli so'zlashuvda so'zning tor ma'noda qo'llanishi, sohaviy qo'llanish, ma'nodagi hissiy-ta'siriy bo'yoqning yo'qolishi kabi o'nlab usullarini sanaydi. Albatta, bu kabi usullar botanik terminlarning hosil bo'lishiga ham taalluqli. Tomir leksemasining botanik termin sifatida qaraladigan ma'nosidan "tomir otmoq" iborasi kelib chiqqan va u ham lug'at maqolasiga kiritilgan. Mazkur ibora o'simlikda kuzatiladigan biologik jarayon bo'lib, "ildizini har tarafga yo'naltirmoq, ildizi rivojlanmoq" ma'nosida o'zbekcha matnlarda qo'llanadi. Keyinchalik bundan "asosli tarzda biror joyda o'rinlashmoq" hosila ma'nosi yuzaga chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. Leksema ma'nosining kengayishi va torayishi ularda yuz beradigan asosiy o'zgarishlar sifatida qayd etilar ekan, bunda ma'no kengayishi terminlarga ham taalluqli bo'lishi shubhasiz. "Jamiyat taraqqiy etishi bilan nutqiy hosila ma'no vaqtincha ifodalagan tushunchasi bilan doimiy aloqadorlik kasb etib, bora-bora ijtimoiylashib, qo'llanishi barqaror tus olib boradi va hosila nutqiy ma'no lisoniylashadi". Keltirilgan iqtibos ko'p sememali leksemaning hosil bo'lishi haqidagi fikrlarni qamrab olgan. Terminologik ma'no aksariyat hollarda ko'p sememali leksemalarning asosiy (bosh) ma'no maqomida bo'ladi. Ammo, yuqorida keltirilgani kabi, ba'zi o'rinlarda terminologik ma'no leksemaning hosila ma'nosi bo'ladigan holatlar ham leksik birliklar orasida kuzatiladi. Umuman, birikma shaklidagi terminlarning izohli lug'atlarga kiritilishi lug'at uchun belgilangan meyorlarga ko'ra belgilanadi.

ADABIYOTLAR

1. Сабирова Э. "Ўзбек тилининг изоҳли луғати"да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол. фанл. б. фалс. докт. дисс. – Тошкент, 2022. – Б.4. – 183 б.
2. Mustafayeva S. Xitoycha-o'zbekcha tilshunoslik terminlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazi, 2014. – 111 b.;
3. Muhamedova S. va boshq. Bank-moliya terminlarining o'zbek tilidagi izohli lug'ati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 157 b.;
4. Кадирбекова Д.Х. Инглиз ва ўзбек тилларида ахборот технологиялари терминологиясининг лингвистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – 128 б.;
5. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2009. – 26 б.
6. Маматов Н. Ўзбек пахтачилик терминлари луғатини тузиш юзасидан баъзи мулоҳазалар. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1963. №3. – Б.51-55.;
7. Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1988. – 336 б.;
8. Ақобиров С. Тил ва терминология. – Тошкент: Ўзбекистон КП МКнинг бирлашган нашриёти, 1968. – 39 б.;
9. Ақобиров С. Терминология ишининг мазмуни ва вазибалари хақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1964, №3. – Б.31-39.;

10. Усмонов С. Гиппологическая терминология современного узбекского языка. – Тошкент: Адолат, 1993. – 141 б.;
11. Пардаева И.Х. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол. фанлари номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1994. – 27 б.;
12. Пулатова О.М. Истоки формирования и дальнейшего развития терминологии танцевального искусства узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 23с.;
13. Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1986. – 27 б.;
14. Жабборов Х. Ўзбек тилининг дехкончилик лексикас: Филол. фанл. д-ри дисс. – Тошкент, 2017. – 255 б.;
15. Валиев Т. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талкини: Филол. фанл. б. фалс. докт. дисс. – Самарқанд, 2017. – 134.
16. Сабирова Э. “Ўзбек тилининг изохли лугати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол. фанл. б. фалс. докт. дисс. – Тошкент, 2022. – 183 б.
17. Тютин В.С. Отражение и информация // Вопросы философии. 1967. №3. – С.43.
18. O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B.13-14. – 964 b.
19. Валиев Т. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талкини: Филол. фанл. б. фалс. докт. дисс. – Самарқанд, 2017. – Б.105. – 134.
20. Hashimova X. Izohli lug'atlarda terminlarning tizimlararo ko'chishining berilishi // Academic research in modern science. Vol.2. №13. 2023. – P.88-93
21. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – B.154. – 199 b